

## USTOZ MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK HAYOTI VA IJODI: MA'NAVIY MEROS VA TARIXIY TAFAKKUR IFODASI

Yaxshimurotova Umidaxon Jasurbek qizi

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti.

[yaxshimurotovaumida@gmail.com](mailto:yaxshimurotovaumida@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19946566>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning hayoti, ijodiy faoliyati hamda o'zbek adabiyotidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, uning asarlarida aks etgan milliy o'zlik, tarixiy xotira va insonparvarlik g'oyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Naim Karimovning Oybek va Zarifa asari asosiy manbalardan biri sifatida foydalanilib, yozuvchining shaxsiy hayoti, xususan Zarifa Saidnosirova bilan bo'lgan hayotiy va ijodiy hamkorligi ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Oybek, o'zbek adabiyoti, tarixiy roman, ma'naviyat, Zarifa Saidnosirova, Naim Karimov, "Navoiy", ijod, milliy o'zlik.

**Abstract.** This article examines the life, creative activity, and role in Uzbek literature of Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. It also analyzes the ideas of national identity, historical memory, and humanism reflected in his works. During the research, the work Oybek and Zarifa by Naim Karimov was used as one of the main sources, revealing the writer's personal life, particularly his life and creative partnership with Zarifa Saidnosirova.

**Keywords:** Oybek, Uzbek literature, historical novel, spirituality, Zarifa Saidnosirova, Naim Karimov, "Navoi", creativity, national identity.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются жизнь, творческая деятельность и роль в узбекской литературе Muso Тошмухаммад угли Ойбек. Также анализируются идеи национальной идентичности, исторической памяти и гуманизма, отражённые в его произведениях. В ходе исследования в качестве одного из основных источников использована книга Ойбек и Зарифа Наим Каримов, в которой раскрываются личная жизнь писателя, а также его жизненное и творческое сотрудничество с Зарифа Саидносирова.

**Ключевые слова:** Ойбек, узбекская литература, исторический роман, духовность, Зарифа Саидносирова, Наим Каримов, «Навои», творчество, национальная идентичность.

O'zbek adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirgan siymolardan biri Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek hisoblanadi. U o'zining boy ijodiy merosi, yuksak badiiy didi va xalqparvarlik ruhida asarlari bilan milliy adabiyot rivojiga katta hissa qo'shgan. Oybek ijodi nafaqat badiiy qiymati, balki tarixiy va ma'naviy ahamiyati bilan ham alohida e'tiborga loyiqdir.

Yozuvchining hayoti murakkab tarixiy davrga to'g'ri kelgan bo'lib, bu holat uning ijodiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, uning turmush o'rtog'i Zarifa Saidnosirova bilan bo'lgan munosabatlari va hayotiy hamkorligi uning ijodiy faoliyatida muhim rol o'ynagan. Bu jihatlar Naim Karimov tomonidan yozilgan Oybek va Zarifa asarida batafsil yoritilgan.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yil 10-yanvarda Toshkent shahrida hunarmand oilasida tug'ilgan. Uning asl ismi Muso Toshmuhammad o'g'li bo'lib, "Oybek" taxallusini keyinchalik ijodiy faoliyati davomida qabul qilgan. Yoshligidan ilmga chanqoq bo'lgan Oybek dastlab eski maktabda, so'ngra yangi usul maktablarida tahsil olgan.

Keyinchalik u O'rta Osiyo Davlat universitetida (hozirgi O'zMU) ta'lim olib, adabiyot va tilshunoslik yo'nalishida chuqur bilim egallagan.

Oybekning oilaviy hayoti ham uning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. U Zarifa Saidnosirova bilan turmush qurgan bo'lib, ular o'zaro chuqur hurmat, sadoqat va ijodiy hamkorlik asosida yashagan. Zarifa Saidnosirova o'zi ham ma'rifatparvar, yozuvchi va tarjimon bo'lib, Oybek hayotining eng og'ir davrlarida uning eng yaqin tayanchi bo'lgan. Ularning oilasida farzandlar voyaga yetgan bo'lib, ular ilm-fan va madaniyat yo'lida faoliyat yuritgan.

Oybek va Zarifa asarida Naim Karimov Oybekning oilaviy muhiti nihoyatda samimiy va ma'rifiy ruhda bo'lganini ta'kidlaydi. Ayniqsa, Zarifa opaning sabr-toqati, matonati va ziyoliligi Oybek ijodiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Oybek og'ir kasallikka chalingan davrlarida ham Zarifa opa uning yonida bo'lib, ijoddan to'xtamasligiga yordam bergan.

Oybekning mehnat faoliyati ham serqirra bo'lgan. U nafaqat yozuvchi, balki olim, tarjimon va jamoat arbobi sifatida ham faoliyat yuritgan. U turli davrlarda ilmiy-tadqiqot institutlarida ishlagan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida faoliyat olib borgan hamda adabiyot rivojiga katta hissa qo'shgan. Oybek bir muddat O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida ham faol ishtirok etgan.

Ijodiy faoliyatiga to'xtaladigan bo'lsak, Oybek dastlab she'riyat bilan shug'ullangan.

Uning ilk she'rlari yoshligidayoq matbuotda e'lon qilingan. Keyinchalik u nasrga o'tib, yirik roman va qissalar yaratgan. Uning "Qutlug' qon", "Navoiy", "Quyosh qoraymas" kabi asarlari o'zbek adabiyotining nodir namunalaridan hisoblanadi.

Xususan, "Navoiy" romani orqali Oybek buyuk mutafakkir Alisher Navoiy obrazini tarixiy haqiqat va badiiy mahorat uyg'unligida yaratgan. Ushbu asar yozuvchining eng yuksak ijodiy yutug'i sifatida e'tirof etiladi. Roman orqali Oybek nafaqat Navoiy siymosini, balki butun bir davr muhitini, ijtimoiy munosabatlarni va insoniy fazilatlarini chuqur tasvirlab bergan.

Ustoz Oybekning ijod damlari juda qiyin davrlarga to'g'ri kelgan. Oybek va Zarifa opa bir yer sotib olishdi va 2 yil 1440-1441-yillar qurilish tashvishi bilan o'tdi. Endi yorug' kunlar kelishiga ishongan oilani yangi sovuq xabar erta tongdan qarshiladi. "Urush boshlanibdi" bu mash'um xabar katta-yu kichikning qalbini istirobga to'ldirdi. Negaki, butun xalq "Urush" so'zi negizida begunoh qurbonlar, bamisoli qonli daryolar, insonlarning kesilgan boshlaridan yasalgan tepaliklarni fahmlar edilar.

Barcha o'zbek o'g'lonlari kabi Oybek ham qo'l qovushtirib o'tirolmadi. Oybek urushga qatnashish maqsadida ketma-ket xat yoza boshladi. Ammo bularning bari bekor chunki harbiy kamissariatdagilar Oybekni front ortida kerak deb hisoblashardi. Vanihoyat, Oybek boshqa yo'l orqali urushga borishga muvaffaq bo'ldi. 1942-yil noyabrning so'nggi haftasida O'zbekiston yoshlar tashkiloti Markaziy Qo'mitasining kotibi Eson Rahimov boshchilik qilgan ikkinchi o'zbek badiiy brigadasi poyezdda Moskva sari yo'l oldi. Oybek bilan birgalikda jami 16 kishi edi. U frontda urushning butun daxshatlarini, jangchilarning mashaqqatli harbiy hayotlarini, sovetlar vatanining xar bir qarich yeri uchun to'kilayotgan qonni o'z ko'zi bilan ko'rgan bo'lsa ham, uning nazarida, uning mahorabadan olgan taassurotlari bir roman uchun hali yetarli emas edi. Shuning uchun ham u san'atkor yurtdoshlaridan ajralgan holda xarbning "har bir kavagi"ga kirib chiqmoqchi bo'ladi. Oybek urushning jonli ko'rinishlarini qalamga olar edi. Urushning daxshatini, unda shahid ketgan birodarlarining xotiralarini jonli namoyish qilishni u o'z burchi deb bilgan.

Keyinchalik "Quyosh qoraymas" romanida tasvirlangan, adibning o'zi shohid bo'lgan urush manzaralarini oq qog'ozga tushirgan.

Oybek o'lim to'shagida turib, yana 17 yil umr ko'rdi. Tugallanmay qolgan "Quyosh qoraymas" romanini, "Nur qidirib" qissasini yozib tugatdi. "Oltin vodiya shabadalar" romanini qayta ishlab chiqdi. "Ulug' yo'l" romani, "Bolalik xotiralarim", "Bola Alisher" qissalari, "Guli va Navoiy", "Davrim jarohati" kabi dostonlar yaratdi. Oybek xastalik chog'ida garchand so'nggi kunlariga qadar so'zlash qobiliyatini to'la tiklay olmagan bo'lsada, xastalik ustidan, zaharli chayonlar (dushmanlar) ustidan g'alabaga erishdi. Adib xasta bo'lsa ham ilhomga, ijodiy rejalarga to'lgan holda yashadi. U oyoqqa turgach, qadrdon ko'chalarni kezib, sevimli o'ying oltin shu'lalari ostida asta-asta qadam bosishni o'ylar ekan, uning qalbidagi ilhom bulog'i jo'shib, nafis tuyg'ular favvorasi otilib turardi.

Oybek ijodining eng muhim jihatlaridan biri — undagi samimiyat va hayotiylikdir. U yozgan she'rlar, dostonlar va romanlarda sun'iylik sezilmaydi. Har bir satr ortida muallifning ichki kechinmalari, hayotiy kuzatuvlari va inson taqdiriga bo'lgan befarq bo'lmagan munosabati mujassam. Ayniqsa, Oybek asarlarida oddiy xalq hayoti, ularning orzu-umidlari, dardi va quvonchi chuqur aks etgani e'tiborni tortadi. Bu jihat uning ijodini o'quvchiga yaqinlashtiradi.

Oybek ijodini o'rganish jarayonida shuni angladimki, u adabiyotga faqat go'zal so'zlar yig'indisi sifatida qaramagan. U uchun adabiyot — tarbiya vositasi, xalqni uyg'otuvchi kuch, millatni o'zligini anglashga chorlovchi maydon bo'lgan. Ayniqsa, tarixiy mavzudagi asarlarida bu holat yaqqol seziladi. U o'tmishga murojaat qilar ekan, uni shunchaki tasvirlab bermaydi, balki tarixdan saboq chiqarishga undaydi.

Oybekning tarixiy romanlari orqali o'quvchi nafaqat muayyan davr voqealari bilan tanishadi, balki o'sha davr insonlarining ruhiy holati, dunyoqarashi va ichki kurashlarini ham his qiladi. Masalan, "Navoiy" romani orqali men Alisher Navoiy siymosini faqat buyuk shoir sifatida emas, balki xalq taqdiri uchun kurashgan, adolat va ma'rifat yo'lida yashagan ulug' inson sifatida yanada chuqurroq angladim. Bu asarda Oybek Navoiy shaxsiyatini ideallashtirib yubormaydi, aksincha, uni tirik, his qiladigan, iztirob chekadigan inson sifatida tasvirlaydi.

Oybek she'riyatida esa lirizm va falsafiy mushohada uyg'unlashganini ko'rish mumkin.

Uning she'rlarini o'qir ekanman, satrlar orasidan muallifning hayotga, zamonga va inson taqdiriga bo'lgan munosabatini his qildim. Oybek she'rlarida tabiat tasviri ko'pincha inson ruhiyati bilan bog'lanadi. Tabiat manzaralari orqali u insonning ichki kechinmalarini ifodalaydi.

Bu uslub she'rlarni yanada ta'sirchan va mazmunli qiladi.

Oybek ijodida vatanparvarlik g'oyasi alohida o'rin tutadi. Ammo bu vatanparvarlik balandparvoz shiorlar orqali emas, balki xalq taqdiriga achinish, millat kelajagi haqida qayg'urish orqali ifodalanadi. U vatanni faqat geografik hudud sifatida emas, balki til, madaniyat, tarix va insonlar birligi sifatida tasavvur qiladi. Shu sababli ham Oybek asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Shuningdek, Oybek tarjimon sifatida ham samarali faoliyat olib borgan. U jahon adabiyotining bir qator durdona asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, milliy adabiyot rivojiga hissa qo'shgan. Bu esa uning dunyoqarashi keng, bilim doirasi chuqur ijodkor ekanligini ko'rsatadi.

Adibning tili sodda, ravon va ta'sirchan. U murakkab fikrlarni ham oddiy so'zlar orqali yetkazib bera olgan. Bu esa uning asarlarini keng kitobxonlar ommasiga uchun tushunarli qilgan.

Oybek asarlarini o'qir ekanman, matndan charchamadim, aksincha, fikrdan fikrga o'tib, mazmunni chuqurroq anglashga intildim. Bu holat adibning badiiy mahorati yuqori darajada ekanidan dalolat beradi.

Oybek ijodining yana bir muhim tomoni — unda insonparvarlik g'oyasining ustuvorligidir.

U qaysi mavzuda yozmasin, markazda doimo inson turadi. Insonning sha'ni, qadr-qimmati, erkinligi Oybek uchun eng muhim masalalardan biri bo'lgan. Uning qahramonlari hayotda duch keladigan qiyinchiliklar, ichki ziddiyatlar va tanlovlar orqali o'quvchi o'z hayoti haqida ham o'ylab qoladi.

Talaba sifatida Oybek ijodini o'rganish menga nafaqat adabiy bilim berdi, balki hayotga boshqacha nazar bilan qarashga ham o'rgatdi. Uning asarlarida sabr, matonat, bilimga intilish va adolatga sadoqat kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Bu fazilatlar bugungi yoshlar uchun ham juda muhim, deb o'ylayman.

Xulosa qilib aytganda, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan, ijodi bilan millat ma'naviyatini boyitgan buyuk adibdir. Uning asarlari faqat o'tmish yodgorligi emas, balki bugungi va kelajak avlod uchun ham ma'naviy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Oybek ijodini o'rganish orqali biz nafaqat adabiy zavq olamiz, balki insoniylik, vatanparvarlik va ma'rifat yo'lida yashashning asl mohiyatini anglaymiz.

Umuman olganda, Oybekning hayoti va ijodi bir butun holda qaralganda, u nafaqat buyuk yozuvchi, balki o'z xalqining haqiqiy fidoyi farzandi, ma'naviy yetakchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri sifatida milliy madaniyat rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Uning ijodiy merosi nafaqat o'z davri, balki bugungi kun uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Oybekning shaxsiy hayoti, xususan Zarifa Saidnosirova bilan bo'lgan munosabatlari uning ijodida muhim o'rin egallaydi. Naim Karimovning Oybek va Zarifa asari bu jihatlarni chuqur anglashga yordam beradi.

Adibning asarlari yosh avlodni ma'naviy barkamollikka, tarixni hurmat qilishga va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga chorlaydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Oybek ijodi o'zida tarixiy haqiqat va badiiy tafakkurni uyg'unlashtirgan noyob hodisadir. Uning asarlarida millatning o'tmishi, ruhiy kechinmalari va orzu-intilishlari yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan. Bu esa uning asarlarini nafaqat adabiy, balki ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan ham bebaho manbaga aylantiradi.

Bugungi globallashuv davrida Oybek merosi yosh avlodni milliy o'zlikni anglashga, tarixiy xotirani asrab-avaylashga va yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga undaydi. Uning asarlari orqali inson qalbida vatanparvarlik, adolatparvarlik va insonparvarlik tuyg'ulari mustahkamlanadi. Shu boisdan ham Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek ijodi nafaqat o'rganilishi, balki keng targ'ib qilinishi zarur bo'lgan bebaho ma'naviy merosdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Naim Karimov, "Oybek va Zarifa", 2005.
2. Zarifa Saidnosirova, "Oybegim mening". ("Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati-2005)
3. <https://tafakkur.net/muso-toshmuhammad-ogli-oybek.haqida>.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oybek>.